

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YELIN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**INSON FAROVONLIGINI
O'RGANISHDA FANLARARO
YONDASHUV**

xalqaro ilmiy konferensiya materiallari

II QISM

Toshkent - 2023

UO'K 08
KBK 94

Mas'ul muharrir:

Muxamedov Gafurjon Isroilovich

Kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston fan arbobi

Tahrir hay'ati:

O.D.Ziyadullayev, E.E.Simanyuk, J.E.Usarov, S.B. Malix, D.O.Ximmataliyev, T.N.Tixomirova, R.A.Ikromov, Serdar Serdar uglu, J.F.Ravshanov, A.A.Pecherkina, G.O.Ernazarova, D.E.Chernouxov, F.U.Qodirova, YU.V.Zapariy, N.X.Elmurzaeva, YU.E.Pyankova, SH.R.Samarova, A.P.Andropov, A.N.Rasulov, S.B.Qorayev, I.D.Qodirov, S.Gayupova, K.R.Mamadaliyev, A.S.Burnasov, N.J.Eshnayev, SH.E.Nurmamatov

Konferensiyaning maqsadi jamiyatda inson farovonligini oshirish muammolarini o'rganish va bu yo'lda izlanishlar iolib borayotgan tadqiqochilarga amaliy yordam berish, ularni birlashtirishdan iborat. Insonning hayotda yashash darajasining sifat jihatidan o'sib borishi, raqamlashtirish jarayonlarining jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslarga ta'sirini o'rganishga fanlararo yondashuvni ishlab chiqishni nazarda tutadi. To'plamdan shaxs farovonligining psixologik, inson farovonligining demografik jihatlari, ijtimoiy-madaniy aspektlari, ta'lim inson farovonligining bosh omili ekanligi, mustaqil-ta'lim klasteri inson farovonligining asosi va raqamlashtirishning inson farovonligini ta'minlashdagi qulayliklari masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Kitob soha mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ilmiy to'plam Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2023 yil 27 sentyabrdagi 02-sonli qo'shma yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. Ilmiy to'plam maqolalarida keltirilgan iqtibos va dalillar obyektivligi mualliflar zimmasida qoldiriladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ISBN 978-9910-9966-6-5

© Zebo prints, 2023.

© Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Оттебергенов Ж.С. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishning interfaol o'qitish texnologiyalari	264
Пулатова Дилфуза. Психолого-педагогические основы и методы научно-исследовательской деятельности студентов	267
Убайда Юнусовна. Организация службы слухоречевой реабилитации детей с кохлеарными имплантами в республике узбекистан как один из успешных направлений подготовки детей к инклюзивному образованию	269
Убайда Юнусовна. Инклюзив таълим шароитида ўқувчиларнинг билимини баҳолаш	273
Файзиёва Қуйсиной, Ражабова Лола. Тарбиянинг ўзига хосликлари ҳамда таълим жараёнидаги ўрни ва аҳамияти	276
Ҳакимов Ж.О. Бўлажак муҳандислар лойиҳалаш фаолиятини ташкил этиш	282
Мамадалиев К. Р. Мустақил таълим кўникмасини шакллантириш таълим жараёни истиқболи сифатида	284
VI SHO'BA. RAQAMLASHTIRISH INSON FAROVONLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVI SIFATIDA	
Abdig'Afforova Joziba, B.M.Qandov. Jamiyatimizda ma'naviyatning ijtimoiy maqomini oshirishda ma'naviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati	288
Anorboyev B.D. O'quvchilarning futbol bo'yicha texnik-taktik tayyorgarlik tomonlarini o'rganish muammolari	290
Abduraxmanova J.N. , Ibodullayev D.R., Po'Latova G.D. Amputant talabalarni harakatli va sport o'yinlari elementlari orqali funksional imkoniyatlarini oshirish	293
Davronov Avazbek. Ta'lim jarayonida omr evaluator dasturi (evalbee) dan foydalanish imkoniyatlari	297
Joldasov Ixtiyor. Kasb-hunar maktablarida kasbga yo'naltirishning pedagogik asoslari	299
Jumanazarova Z.Q. Talabalarning kompyuter savodxonligini oshirish	302
Maxsudov P.M. Zamonaviy o'qituvchi va uning raqamli kompetentligi	304
Musurmanov R. Oilada innovatsion klaster usulidan foydalanib farzand tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari	307
Musurmonov R., M.Musurmonova, N.Abduhakimova. Maktab darslarining intizomiy omillari xususida	310
Muxtarova Shaxnoza. Ona tili darslarida raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish	312
Narmetov Ibrohim, Jo'rayev Anvar. Yangi raqamli transformatsiya asrida ta'limni rivojlantirish orqali barqaror rivojlanish va jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlash	316

MAKTAB DARSLARINING INTIZOMIY OMILLARI XUSUSIDA

R.Musurmonov

ChDPU "Maktab menejmenti" kafedrası dotsenti, p.f.n.

M.Musurmonova

ChDPU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi.

N.Abduhakimova

ChDPU "Pedagogika" fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada maktab o'quvchilarining dars intizomiga rioya qildirishning ahamiyati, yo'l-yo'riqlari, tartib-intizom ta'lim samaradorligi omili ekanligi va unga erishishning murakkab usullari tahlil qilinib, metodik tavsiyalar berish maqsad qilib olingan.

Tayanch so'z va iboralar: globallashuv, maktab jamoatchiligi, o'quvchi, o'qituvchi, tartib-intizom, omil, hamkorlik, muvofiqlashtirish, darslarda intizomiy tartib, vertual-axborot muhiti, ommaviy axborot vositalari, maktabda o'rnatilgan tartib-intizomni buzilishi, xulq-atvor.

Har qanday zamonda ham dars intizomi masalasi o'z zarbdorligini yo'qotmagan. O'tmishda darsning yirik bir asarga tenglashtirilishi kabi allomalarning fikri yoki zamonaviy maktab ta'limi muammolarining yechimini izlash ham bevosita dars intizomiga borib taqaladi. Demak, intizom pedagogik vosita sifatida bosh omil hisoblanadi. Intizomni ta'minlash va saqlash bu ko'pchilikka bog'liq bo'lgan tarbiyaviy tadbir hisoblanib, asosiy mas'uliyat ota-onalar va o'qituvchilarga tushadi.

P.V. Kapterov yozgan ediki, "Maktab ishi ko'pchilikning – o'qituvchilar va o'quvchilarning manfaatları uchun hamkorlikdagi ishdir. Ko'pchilikning hamkorlikdagi faoliyat va hayotini esa ma'lum tartiblarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Zero, tartib jamiyatda yashash va ishlashning muhim shartidir. Maktab hayotining tartibi intizomdir. Uning vazifasi – maktabda ta'lim oluvchilarning hayotini boshqa ta'lim oluvchilar hamda o'qituvchilar bilan hamohang tarzda tashkil etishdan iborat. Intizom o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga nisbatan maktab jamoatchiligi va alohida shaxslar tomonidan o'tkazilishi mumkin bo'lgan tazyiqlardan himoya qilishni anglatadi. Intizom ta'lim oluvchi alohida shaxslar yoki o'qituvchilarning, maktab jamoasining qiziqishlarini muvofiqlashtirish orqali hamkorlikdagi do'stona faoliyat uchun zamin yaratmog'i lozim " [3].

Olimning fikridan va hayotiy tajribalarimizdan kelib chiqib, zamonaviy maktab, umuman uning intizomiy omillari globallashuv bosqichi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonlarining mavjud xususiyatlari va mohiyatlarining umumiyiligini anglatilishini tushunish qiyin emas.

Ayni paytda maktab ma'muriyati darslarda intizomiy tartibni tashkil etishdagi murakkabliklarni ro'kach qilib aybni zamonga, o'quvchilarga, vertual-axborot muhiti va shu kabilarga ag'darmoqchi bo'ladilar. Boshqa tarafdin qaraganda ommaviy axborot vositalarida maktabda va darsda intizom borasida ham "o'qituvchi – o'quvchi" munosabatlarida (o'qituvchi o'quvchining soch gajagini kesib, peshonasiga "ikkichi" deb yozib qo'ygan) ham, "o'quvchi – o'quvchi" munosabatlarida ham chegaradan chiqib, haddidan oshayotgan holatlar kuzatiladi.

Bu holat maktab jamoatchiligi tomonidan haqiqat, fenomen, butun maktabni zaharlagan “virus” sifatida, nafaqat me’yordan oshsa, balki har kuni kuzatib, nazorat qilib boriladigan badanning, vujudning haroratidek emas, balki xususiy, ahyon-ahyonda uchrab turadigan holat tariqasida qaraladi. Afsuski, maktab jamoatchiligi bunday haqiqatga qarshi maqsadli tarzda ishlashni xohlamaydi, balki qaysidir joyda namoyon bo’lgan qaysidir “virus”ga nisbatan “karantin” uslubini qo’llash bilan kifoyalanadi [2].

Maktab jamoatchiligi asrlar mobaynida o’quvchilarning yurish-turishi, xatti-harakatlarini kuzatish natijasida pedagoglarning “retseptur ma’lumotnoma”si (pedagogik potfolio)ni to’ldirib bormoqdalar. Kundalik hayotdagi dalillar maktab intizomining muammolar ko’lamini kengaytirmoqda, amaliyot esa ularni bartaraf etish yo’llarini izlamoqda.

Bolalarni intizomga o’rgatish har doim pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo’lgan va bugungi kunda ham, bundan keyin ham shunday bo’lib qolmoqda.

“Retseptor ma’lumotnomasi” keng qamrovli davomiylikka ega. Zero, zamonaviy sharoitda maktabning muammoli muhit ko’lami ortib bormoqda. Jumladan, darsda haddan ziyod vaysaqilik (ko’p gapirish), darsga kelmaslik, kechikib kelish, yolg’onchilik, provakator o’quvchilarni paydo bo’lishi, tamaki chekish, alkogolizm, narkotiklar, qo’l telefonlari, o’quvchilarni turli oilalardan saralanishi kabi muammolar masala yechimini chigallashiga sababchi bo’ladi. Ammo sabablar qanchalik ko’p va murakkab bo’lmasin zamonaviy maktab o’z o’quvchilarini barkamol insonlar qilib tarbiyalashi hayotiy zarurat hisoblanadi.

Zero uchinchi Renesans poydevorini qurishga qodir jismoniy, ruhiy va ma’naviy barkamol shaxslar globallashuv sharoitida jamiyatimiz uchun juda zarurligi nuqtayi nazaridan maktab pedagogik jamoasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ta’lim berish jarayonida o’qituvchilar qanchalik an’anaviy dars berish usullaridan farqli o’laroq, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalansalar, bunday darslar o’quvchilar uchun ham qiziqarli va intizomli bo’lishi muqarrardir.

Chunki o’qituvchining qiziqarli tarzda dars o’tishi o’quvchilarni beixtiyor jarayonga jalb etishning muhim garovidir.

Adabiyotlar:

1. Julia G. Thompson. La gestion de classe au secondaire. Ghidpratique. Chenerlier Edication. Montreal. 2013. 318 p.
2. Axmedova M. “Pedagogik konfliktologiya” o’quv-qo’llanma. – T.: 2005-y. B. 17.
3. Rashidov H., Musurmonov R. “Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta’sir etishning nazariy asoslari” monografiya. – T.: Noshirlik yog’dusi nashriyoti, 2015-y
4. R.Musurmonov “Ta’lim sifatini boshqarishga ijobiy ta’sir etuvchi omillar haqida”, Kirgiziya Vestnik Batkentskogo gos. Univer. J. 2008. № 5.
5. R.Musurmonov “Sog’lom avlod tarbiyasi – jamiyat taraqqiyotining asosi” O’zMU xabarlarini jurnali. – T.: 2011 y. № 1